

Sho'rchi va Oltinsoy tumanidagi 715 nafar yoshga 1 mlrd 980 mln so'mlik amaliy yordam ko'rsatildi



Davlatimiz rahbari belgilab bergan yangi tizimga asosan yoshlarni manzilli qo'llab-quvvatlash ishlari davom etmoqda. Jumladan, bugun Surxondaryo viloyatida navbatdagi tadbir Sho'rchi tumanidagi 2-son kasb-hunar maktabida o'tkazildi.

Tadbirda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, "Yoshlar daftari"da turgan Sho'rchi va Oltinsoy tumanidagi 715 nafar yoshga 1 mlrd 980 mln so'mlik, jumladan, 49 nafariga o'zini o'zi band qilishi uchun jihoz, asbob-uskuna va dastgohlar hamda 666 nafariga o'qish, ilm fan bilan shug'ullanish, davolanish hamda safarbarlik chaqiruvi rezervi xarajatlarini qoplash uchun moddiy yordam sertifikatlarini topshirdi.

Shuningdek, viloyat va tumanlar tashkilotlari tomonidan o'zlariga biriktirilgan "qizil" toifadagi yoshlarning 123 nafariga turli jihozlar topshirildi.

Ma'lumot uchun, shu kunga qadar ushbu tumanlarda "qizil" toifaga kiritilgan 3 482 nafar yoshlarning 3 409 nafari yoki 97,9 foiziga turli ko'rinish va yo'nalishdagi amaliy yordamlar ko'rsatildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)